

TASHQI QARZ VA UNING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI

Ismoilov Muhammadqodir Ulug'bek o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti,

4-bosqich kursanti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada tashqi qarzning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri tahlil qilinadi. O'zbekiston iqtisodiyotida tashqi qarzning o'sishi ijobiy va salbiy jihatlari bilan yoritilgan. Maqolada tashqi qarzning iqtisodiy rivojlanishdagi roli, investitsiya va infratuzilma rivojlanishidagi o'rni, shuningdek, uning xalqaro moliyaviy barqarorlikka ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, ortiqcha tashqi qarzning salbiy ta'sirlari, foiz to'lovlari va valyuta xavflari haqida gapiriladi. O'zbekistonning tashqi qarzi yillik o'sish dinamikasi va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada tashqi qarz miqdorini boshqarish va iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun tavsiyalar beriladi.*

Kalit so'zlar: *tashqi qarz, iqtisodiy xavfsizlik, qarzni boshqarish, iqtisodiy rivojlanish, valyuta xavflari, foiz to'lovlari, tashqi qarzning o'sishi, investitsiyalar, xalqaro moliyaviy barqarorlik, qarzdorlikni boshqarish.*

ВНЕШНИЙ ДОЛГ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА ЭКОНОМИЧЕСКУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ

Аннотация: *В данной статье рассматривается влияние внешнего долга на экономическую безопасность. Оценены как положительные, так и отрицательные аспекты роста внешнего долга в экономике Узбекистана. В статье анализируется роль внешнего долга в экономическом развитии, его влияние на инвестиции и развитие инфраструктуры, а также его роль в обеспечении международной финансовой стабильности. Также рассматриваются отрицательные последствия чрезмерного внешнего долга, такие как выплаты процентов и валютные риски. Анализируется*

динамика роста внешнего долга Узбекистана и его влияние на экономическую безопасность. В статье предложены рекомендации по управлению внешним долгом и обеспечению экономической безопасности.

Ключевые слова: внешний долг, экономическая безопасность, управление долгом, экономическое развитие, валютные риски, платежи по процентам, рост внешнего долга, инвестиции, международная финансовая стабильность, стратегия управления долгом.

EXTERNAL DEBT AND ITS IMPACT ON ECONOMIC SECURITY

Abstract: This article examines the impact of external debt on economic security. The positive and negative aspects of the increase in external debt in Uzbekistan's economy are discussed. The article analyzes the role of external debt in economic development, its influence on investment and infrastructure development, and its role in ensuring international financial stability. It also discusses the negative consequences of excessive external debt, such as interest payments and currency risks. The annual growth dynamics of Uzbekistan's external debt and its impact on economic security are analyzed. The article provides recommendations for managing external debt and ensuring economic security.

Keywords: external debt, economic security, debt management, economic development, currency risks, interest payments, growth of external debt, investments, international financial stability, debt management strategy

Kirish

Moliyaviy munosabatlar tizimida davlat qarzi tushunchasi katta ahamiyatga egadir. Davlat tomonidan qarziy faoliyatning amalga oshirilishi natijasida davlat qarzi vujudga keladi. Jismoniy va yuridik shaxslar, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar va xalqaro huquqning boshqa subyektlari oldida vujudga kelgan hukumatning qarziy majburiyatlariga davlat qarzi deyiladi.

Tashqi qarz – bu davlatlarning xalqaro bozorlar yoki boshqa mamlakatlardan olingan qarzlaridir. Ushbu qarzlar iqtisodiy rivojlanish uchun muhim moliyaviy manba bo'lishi mumkin, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun. Tashqi qarzning to'g'ri boshqarilishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, investitsiyalarni jalb qiladi va infratuzilma rivojlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, tashqi qarz orqali olingan mablag'lar ta'lim, sog'liqni saqlash, transport va boshqa ijtimoiy infratuzilma sohalariga yo'naltirilishi mumkin. Ammo, tashqi qarzning ortiqcha o'sishi iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin.

O'zbekistonning tashqi qarzi oxirgi yillarda sezilarli o'sishni kuzatgan. Davlat iqtisodiy rivojlanishning turli yo'nalishlarini moliyalashtirish uchun tashqi qarzga tayanmoqda, shu bilan birga, qarzning miqdori va uning qaytarilishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish zarurati yuzaga kelmoqda. O'zbekistonning tashqi qarzi iqtisodiy xavfsizlikka qanday ta'sir qilishini va qanday boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish kerakligini tahlil qilish, bu maqolada asosiy maqsadlardan biridir.

Adabiyotlar sharhi

Tashqi qarz masalasi iqtisodiyotni rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil sifatida ko'rib chiqiladi. Davlat qarzini boshqarish va uni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi qonuni asosida amalga oshiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekistonning tashqi qarzini boshqarish va uning iqtisodiy xavfsizlikka ta'sirini minimallashtirish uchun amalga oshirilgan strategiyalar va kelgusidagi rejalar, mamlakatning barqaror iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu maqola, ushbu jarayonlarni chuqur tahlil qilish va qarzning ijobiy va salbiy ta'sirlarini ko'rsatish bilan birga, kelajakda olib borilishi lozim bo'lgan siyosatlarni o'z ichiga oladi. Tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, tizimli yonashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston Respublikasining “Davlat qarzi to‘g‘risida”gi qonunida davlat qarziga “davlat qarzi – davlat tomonidan ichki mablag‘ni va xorijdan mablag‘ jalb qilish natijasida vujudga kelgan O‘zbekiston Respublikasi majburiyatlarining yig‘indisi”dir deb, ta’rif berilgan.

Joylashtirilish joyiga qarab davlatning qarzlari ikkiga bo‘linadi:

1. Davlatning ichki qarzlari
2. Davlatning tashqi qarzlari.

Tashqi qarz — bu davlatlar, kompaniyalar yoki boshqa tashkilotlar tomonidan xorijdan olingan qarzlardir. Tashqi qarz mamlakatlar uchun iqtisodiy o‘shishni rag‘batlantiruvchi muhim moliyaviy manba bo‘lishi mumkin. Tashqi qarzlar turli manbalardan olinadi, jumladan, xalqaro moliya institutlari, chet el davlatlari va tijorat banklaridan. Tashqi qarzning asosiy maqsadi — davlatning iqtisodiy rivojlanishini moliyalashtirish, ijtimoiy va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish, shuningdek, qisqa yoki uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilishdir.

Tashqi qarzning o‘shishi ijobiy va salbiy ta’sirlar ko‘rsatishi mumkin. Ijobiy tomoni shundaki, u mamlakatning iqtisodiy barqarorligini va moliyaviy kuchini mustahkamlashda yordam beradi. Biroq, qarz miqdori ortib borishi va qaytarilish muddati uzayishi bilan iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar yuzaga kelishi mumkin.

Tashqi qarzni iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta’siri

Tashqi qarz mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Qarzni jalb qilish davlatga xalqaro bozorlar orqali qo‘shimcha moliyaviy resurslarni olish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birga, to‘g‘ri boshqarilgan tashqi qarz mamlakatning uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o‘shishiga hissa qo‘shishi mumkin.

Tashqi qarzning iqtisodiy rivojlanishga bo‘lgan ijobiy ta’sirlari:

- **Kapital manbalarini kengaytiradi.**

Tashqi qarz davlatlarga o'z iqtisodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha kapitalni taqdim etadi. Mamlakatlar tashqi qarz orqali o'z iqtisodiy rivojlanishlarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni olishadi. Boshqacha qilib aytganda, tashqi qarz davlatlarning ichki mablag'larini to'liq ishlata olmasligida, xorijdan jalb qilinadigan mablag'lar asosiy moliyaviy manbaga aylanadi.

- Iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlaydi.

Tashqi qarzning yana bir ijobiy ta'siri – iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdir. Bunday qarzlar o'zaro savdo, sanoat ishlab chiqarishi, qurilish va infratuzilma sohalaridagi loyihalarni moliyalashtirishda qo'llaniladi. Davlatlar qarzni qo'llash orqali ishlab chiqarishni kengaytirishi, yangi ish o'rinlarini yaratishi va investitsiyalarni jalb qilishi mumkin. Tashqi qarzdin samarali foydalanish davlat iqtisodiyotining o'sishiga va YaIMning oshishiga olib keladi.

O'zbekiston, tashqi qarzlardan foydalanib, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarida yirik loyihalarni amalga oshirmoqda. Bu o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga yordam beradi va yangi ish o'rinlarini yaratadi.

- Infratuzilma rivojlanishini ta'minlaydi.

Tashqi qarz orqali mamlakatlar yangi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishi mumkin. Yangi transport tarmoqlari, energiya ishlab chiqarish, suv ta'minoti va boshqa asosiy infratuzilma loyihalari iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega. Xorijiy qarzlar orqali amalga oshirilgan infratuzilma loyihalari iqtisodiy faoliyatni yanada samarali va barqaror qiladi.

Xitoy va Xalqaro valyuta fondi kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan taqdim etilgan qarzlar yordamida infratuzilma tarmoqlarini rivojlantirish O'zbekiston kabi mamlakatlarga yirik loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Yangi avtomobil yo'llari, temir yo'l tizimlari, elektroenergiya tarmoqlarini modernizatsiya qilish kabi infratuzilma loyihalari iqtisodiy barqarorlikka hissa

qo'shadi.

- Xalqaro savdoni rag'batlantiradi.

Tashqi qarz mamlakatning xalqaro savdosi va investitsiyalarga kirish imkoniyatini kengaytiradi. O'zgarishlarga yo'l ochuvchi tashqi qarzlar orqali eksport hajmini oshirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish va eksport uchun zarur infratuzilmani yaratish mumkin. Tashqi qarzlar, ayniqsa, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishning rivojlanishiga yordam beradi va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni oshiradi.

O'zbekiston tashqi qarzlarini jalb etib, eksportga yo'naltirilgan sanoatni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Bu iqtisodiy o'sishga yordam beradi, yangi bozorlar uchun mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratadi.

- Investitsiyarni jalb qiladi.

Tashqi qarzlar, shuningdek, xalqaro investitsiyalarning mamlakatga kirishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatini beradi. Xalqaro moliya institutlari va tijorat banklarining moliyaviy resurslari orqali mamlakatlar investitsiyalarni jalb qilishda muvaffaqiyatli bo'lishi mumkin. Investitsiyalar yangi texnologiyalar, tajriba va boshqaruv metodlarini olib kelishi bilan iqtisodiy o'sishni tezlashtiradi.

Yevropa Ittifoqi, Jahon banki va Xalqaro moliya korxonalari orqali O'zbekistonning energetika, transport va boshqa tarmoqlarga investitsiya jalb qilinmoqda. Bular o'z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining o'sishiga turtki beradi.

- Makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi

Tashqi qarz mamlakatlarga moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, chunki qarzlar orqali davlat o'z iqtisodiy faoliyatini barqaror ravishda moliyalashtiradi. Shu bilan birga, tashqi qarzning boshqarilishi davlatni inflyatsiya va iqtisodiy beqarorlikni oldini olishga undaydi. Boshqa tomondan, tashqi qarzning o'rta muddatda to'lanishi iqtisodiy turg'unlikni saqlashga yordam beradi.

Agar davlatning tashqi qarzi yaxshi boshqarilsa, u makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi, bu esa investitsiyalarni jalb qilish, o'sishni rag'batlantirish va iqtisodiy xavfsizlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

- Ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydi

Tashqi qarz mamlakatlarga ijtimoiy sektorda, xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam tizimlarini rivojlantirish uchun mablag'lar ajratishga yordam beradi. Yangi tibbiyot muassasalari, maktablar va universitetlar qurish, ijtimoiy himoya dasturlarini amalga oshirish kabi sohalarga sarflanadigan qarzlar, shuningdek, xalqning turmush darajasini oshirishga yordam beradi.

O'zbekiston tashqi qarzlar orqali sog'liqni saqlash tizimlarini yaxshilashga, ta'lim va ijtimoiy himoya sohalarini rivojlantirishga harakat qilmoqda. Bu o'z navbatida, mamlakat aholisi uchun yanada yaxshi sharoitlar yaratadi.

Tashqi qarzni iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'siri

Tashqi qarz, mamlakatlar uchun iqtisodiy o'sishni ta'minlashda yordam berishi mumkin bo'lsa-da, uni noto'g'ri yoki haddan tashqari ko'p miqdorda olish iqtisodiy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar tashqi qarzni boshqarish yaxshi tashkil etilmasa yoki qarzning o'z vaqtida qaytarilishi ta'minlanmasa, bu mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga jiddiy tahdid soladi.

Quyida tashqi qarzning iqtisodiy xavfsizlikka bo'lgan salbiy ta'sirlarining asosiy jihatlari keltirilgan:

- Tashqi qarzning ortishi va moliyaviy mustaqillikka tahdid

Tashqi qarzning haddan tashqari o'sishi davlatning moliyaviy mustaqilligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Tashqi qarz miqdori oshgan sari davlatning iqtisodiy siyosatini o'zgartirishda erkinligi cheklanadi. Mamlakat qarzini to'lash uchun ko'proq resurslarni yo'naltirishga majbur bo'ladi, bu esa boshqa ijtimoiy yoki iqtisodiy loyihalarga ajratiladigan mablag'larni kamaytiradi. Natijada, davlat

xalqaro kredit beruvchilarga qaram bo'lib qoladi, bu esa moliyaviy mustaqillikni pasaytiradi.

- Qarzni to'lash yukining oshishi

Tashqi qarzning ortishi, davlatni qarzni qaytarish uchun ko'proq resurslarni ajratishga majbur qiladi. Qarzni to'lash yukining oshishi, davlatning budjetini yirik qismida tashkil etadi, bu esa boshqa muhim sohalarga, masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy yordam va infratuzilma loyihalariga ajratiladigan mablag'larni kamaytiradi. O'z navbatida, bu ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishning sekinlashishiga olib keladi va mamlakatda ijtimoiy notenglikni kuchaytiradi.

- Inflyatsiya va pul tizimiga ta'sir

Tashqi qarzning miqdori ortishi va uning qaytarilishi uchun ko'proq mablag' ajratilishi, ko'pincha davlatni pulni bosib chiqarishga majbur qiladi. Bu esa inflyatsiya darajasini oshiradi va mahalliy pulning qadrsizlanishiga olib keladi. Inflyatsiyaning oshishi esa narxlarning ko'tarilishiga, iste'molchilarning xarid qilish qobiliyatining pasayishiga va umumiy iqtisodiy notenglikka olib kelishi mumkin.

- Xalqaro moliyaviy bozorlarning qaramligi

Tashqi qarz ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar uchun moliyaviy xavf tug'diradi, chunki bu davlatlar xalqaro moliya bozorlaridagi o'zgarishlarga qarab qaram bo'ladi. Agar xalqaro moliyaviy bozorlar beqaror bo'lsa yoki kredit shartlari yomonlashsa, davlatlar o'z qarzlarini qaytarishda muammolarga duch kelishlari mumkin. Bu holatda, mamlakatlar iqtisodiy xavfsizlikni yo'qotishi va iqtisodiy beqarorlikka duch kelishi mumkin.


- Iqtisodiy inqiroz xavfi

Agar tashqi qarz to'g'ri boshqarilmasa, u iqtisodiy inqirozga olib kelishi

mumkin. Ko'p qarz olish va uni qaytarish uchun kerakli mablag'larni olish uchun hukumatning iqtisodiy siyosatidagi o'zgarishlar, ayrim hollarda, ishlab chiqarish jarayonlariga ta'sir qilishi va natijada ish o'rinlarining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Ishsizlikning oshishi ijtimoiy barqarorlikni zaiflashtiradi va iqtisodiy xavfsizlikni pasaytiradi.

O'zbekistonda tashqi qarz holati

Iqtisodiyot va moliya vazirligi e'lon qilgan so'ngi hisobotga ko'ra, 2024-yilda davlat qarzi 40,2 mlrd dollarni tashkil etgan. Shundan tashqi qarz miqdori 33,7 mlrd dollarga yetgan. Xorijdan kreditlarning 17,9 mlrd dollari qat'iy belgilangan foiz stavkada, 15,64 mlrd dollari o'zgaruvchan foiz stavkalarda jalb qilingan.



1-rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat tashqi qarzi dinamikasi, mlrd. doll¹

¹ <https://www.imv.uz>

Davlat tashqi qarzi uch yo'nalishdagi kreditorlardan jalb qilinmoqda. Jumladan, mamlakat tashqi kreditlarining 57 foizi xalqaro moliya institutlaridan, 31 foizi xorijiy hukumatlar moliya tashkilotlaridan, qolgan 12 foizi xalqaro investorlardan olingan.

2024-yil yakuni bo'yicha respublikaga eng ko'p kredit ajratgan beshta kreditorni sanab o'tish o'rinli. O'zbekiston qaytarishi kerak bo'lgan eng yirik kredit Jahon banki tomonidan ajratilgan — 7,63 mlrd dollar. Bu miqdor umumiy tashqi qarzning qariyb 23 foiziga teng.


Ikkinchi yirik kreditor Osiyo taraqqiyot banki bo'lib, mamlakatdagi qarz qoldig'i 7,4 mlrd dollar yoki jami tashqi qarzning 22 foizidir.

Uchinchi yirik qarzlari xalqaro investorlardan jalb qilingan — 4,1 mlrd dollar. Davlat o'z daromadlari bilan xarajatlarini qoplay olmay qolganda byudjet taqchilligi paydo bo'ladi. Defitsit bir necha choralar qatorida qarz olish yo'li bilan qoplanishi mumkin. Ya'ni davlat qarz olishda turli qimmatli qog'ozlar, obligatsiyalar, zayomlar chiqarib sotish, moliya muassasasi (bank) dan ssuda olish yoki boshqa usullardan foydalanadi. Shu ma'noda mamlakat tashqi qarz qoldig'ining 12 foizi xalqaro sarmoyadorlar tomonidan obligatsiyalarni sotib olinishi orqali jalb qilingan.

To'rtinchi yirik qarz beruvchi — Xitoy taraqqiyot davlat banki, Xitoy Eksimbanki va boshqalar hisoblanib, ulardan olingan kredit qoldig'i 3,76 mlrd dollarni tashkil etmoqda. Bu umumiy tashqi qarzlarning 11 foizini tashkil etadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi va boshqalardan 2,9 mlrd dollar qarzдор. Mazkur raqam jami tashqi qarzning 9 foiziga teng.

Qolgan kreditlar esa o'nlab moliya institutlari va davlatlar moliya tashkilotlari hissasiga to'g'ri keladi.



2-rasm. O‘zbekistonga eng ko‘p kredit bergan moliya institutlari va tashkilotlar, mlrd. doll.²

Davlat kafolati ostida olingan kreditlar turli yo‘nalishlarga taqsimlab kelinadi. Jumladan, qaytariladigan tashqi qarzlarning qariyb 15,3 mlrd dollari (umumiy miqdorning 45 foizi) davlat byudjetini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

Kreditlarning 5,74 mlrd dollari yoqilg‘i-energetika sanoatiga ajratilgan (umumiy summaning 17 foizi). Xususan, elektr energetikaga 3,78 mlrd dollar, neft va gaz tarmog‘iga 1,74 mlrd dollarlik kreditlar jalb qilingan. Quyidagi sohalarga nisbatan yirik miqdorda tashqi qarz mablag‘lari yo‘naltirilgan³:

- Qishloq va suv xo‘jaligi — 2,9 mlrd dollar (9 foiz);
- Transport va transport infratuzilmasi — 2,85 mlrd dollar (8 foiz);
- Sog‘liqni saqlash, ta‘lim, axborot va kommunikatsiya texnologiyalari hamda boshqa sektorlar — 2,45 mlrd dollar (7 foiz).

O‘zbekiston davlat qarzi 2025-yil yakunida 45,1 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Bu yil yakunida kutilayotgan yalpi ichki mahsulotga (125 mlrd dollar) nisbatan 36,7 foizga teng degani. Joriy yilda 5,5 mlrd dollar miqdoridagi tashqi qarz olinishi belgilangan⁴. Shundan 3 mlrd dollari

² <https://www.imv.uz/static/kreditorlar>

³ <https://www.imv.uz/static/tarmoqlar>

⁴ Fuqarolar uchun budjet. 2025 loyiha, 59-bet

byudjetni qo'llab-quvvatlashga, qolgan 2,5 mlrd dollari investitsiya loyihalari uchun yo'naltirilishi ko'zda tutilgan.

2026-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti 140 mlrd dollardan ortishi prognoz qilinmoqda. Dastlabki tahlillarda makroiqtisodiy hamda fiskal ko'rsatkichlar barqarorligi ta'minlansa, davlat qarzining yalpi ichki mahsulotga nisbati kelasi yili 37,9 foiz atrofida bo'lishi kutilmoqda. Bu davlat qarzi 53 mlrd dollardan ortishini anglatadi.

Xulosa

Tashqi qarz, bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismi bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy o'sishiga va ijtimoiy sektorlardagi islohotlarga yordam berishi mumkin. O'zbekiston misolida tashqi qarzning ko'payishi, dastlab, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va infratuzilma loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb qilishga xizmat qilgan. Ammo tashqi qarzning ortishi, ba'zi holatlarda, iqtisodiy xavfsizlikka tahdid solishi mumkin.

Tashqi qarzning ijobiy ta'sirlari, asosan, infratuzilma rivoji, energetika va sanoatni modernizatsiya qilish kabi sohalarda namoyon bo'lgan. Tashqi qarzlar, shuningdek, aholi turmush darajasini oshirish, ta'lim, sog'liqni saqlash kabi ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash uchun ham samarali ishlatilgan. Biroq, qarzning ortishi, moliyaviy qaramlikni oshirishi, inflyatsiya va valyuta qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'zbekiston tashqi qarzini boshqarishning samarali strategiyasini ishlab chiqib, iqtisodiy diversifikatsiyani kengaytirishi va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur. Bular, ayniqsa, tashqi qarzning ortishi va uning qaytarilishi bo'yicha aniq reja tuzish, qarzning muddatini uzaytirish, ijtimoiy sektorlarga yo'naltiriladigan mablag'larni himoya qilishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, tashqi qarz O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishiga

ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, uning ortishi va boshqarilishi tizimli ravishda nazorat qilinishi kerak. Bu, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va barqaror rivojlanishni davom ettirish uchun zarur. Tashqi qarzning oqilona boshqarilishi, uni to'lash va qaytarish bo'yicha aniq strategiyalarning ishlab chiqilishi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar muvaffaqiyatli bo'lishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat qarzi to'g'risida"gi qonuni. O'RQ-836-son 29.04.2023.
2. Budjetnoma 2025-2027.
3. "Fuqarolar uchun byudjet. 2025 loyiha" axborot nashri.
4. A.Shernaev, O.Kamolov. Davlat qarzlarini boshqarish. Darslik. T.: Iqtisodiyot-moliya, 2019.
5. J.Ataniyazov, E.Almardononov, A.Abdullayev. Upravleniye gosudarstvennim dolgom. Uchebnoye posobiye. T.: Iqtisodiyot-moliya, 2019.
6. <http://www.lex.uz>.
7. <http://www.imv.uz>.
8. <http://www.stat.uz>.